



2-TOM, 8-SON

Yangi Konstitutsiya - Yoshlar kelajagi kafolat

Ixtiyor Abdurazzakov

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti tyutori

Yangi O‘zbekistonda yoshlar siyosatini zamon talabidan kelib chiqib takomillashtirishda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslarini alohida ta’kidlash lozim. Davlatimiz rahbarining yoshlar kamolotiga qarayotgan doimiy e’tibori, ayniqsa, ta’lim islohotlarida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bu islohotlarning yutug‘i esa yoshlarning davlat va qonunlarga ishonchini kuchaytiradi.

Quvonarli tomoni shundaki, zamon talablari va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida bugungi yoshlarning talab va ehtiyojlarini o‘rganib, yangidan-yangi imtiyoz va imkoniyatlar eshigi ochib berilmoqda.

Xususan, yangilangan Konstitutsiyamizda 18 milliondan ortiq yoshlar masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Yoshlarning ta’lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo‘lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish – davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida kiritildi. Bu Yangi O‘zbekistonda har bir yosh to‘liq ijtimoiy jihatdan himoyalanganini anglatadi. Yorqin na’muna sifatida, Ijtimoiy xizmatlar davlatning majburiyati hisoblangani yoshlarga imtiyozli uylar berish, bepul tibbiy jihozlar, protez-ortopediya buyumlari, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minalash, yetim bolalar uchun oliy ta’limda bepul o‘qish imkoniyati yaratildi.

Ta’limga e’tibor va kafolatlar kengaytirildi:

Ta’lim va ilm-fanga oid normalar qariyb 2 barobarga oshdi.

Grantlar soni 2 baravar ko‘payib, 40 mingtaga yetdi. Shundan, magistratura uchun – 5 baravar ko‘paydi.

Bepul boshlang‘ich professional ta’lim berilishi belgilab qo‘yildi:

Maktablarda bepul umumiy o‘rta ta’lim va kasb-hunar maktablarida boshlang‘ich professional ta’lim berilishi kafolatlandi.

Inklyuziv ta’lim Konstitutsiyaga kiritildi:

Nogironligi bor bolajonlarimizga o‘z tengdoshlari bilan bir xil ta’lim olishi uchun barcha sharoitlar yaratildi.

Oliy ta’limga qabul parametrlari 2016 yilga nisbatan 2,5 barobarga o‘sdi. Natijada yoshlarimizni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 40 foizga yetdi. Agar 2016





2-TOM, 8-SON

yilda jami talabalar soni 250 ming nafarni tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kun qariyb 1 million 300 nafarga yetdi.

Bugungi kunda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish va xususiy sektorni jalb qilish orqali 69 ta nodavlat oliy ta’lim muassasalari tashkil etildi. Xorijiy oliy ta’lim muassasalari soni 31 taga, davlat oliy ta’lim muassasalari 112 taga yetkazildi.

Oliy ta’lim muassasalarining 77 tasida sirtqi, 28 tasida kechki ta’lim qaytadan joriy etildi, 12 tasida bakalavriatning 16 ta ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha masofaviy ta’lim shakli joriy etildi.

22 ta xorijiy mamlakatlarning 60 dan ortiq oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda 300 ga yaqin qo‘shma ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

2024-yilning – Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili, deb e’lon qilinishi ham yurtimizda amalga oshirilib kelinayotgan islohotlarning uzviy va mantiqiy davomi bo‘ldi. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi tomonidan “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi O‘zbekiston prezidenti farmoni loyihasi keng jamoatchilik muhokamasi uchun e’lon qilindi.

Davlat dasturi to‘g‘risidagi O‘zbekiston prezidenti farmoni quyidagi 7 ta blokdan iborat bo‘lib, 36 ta bandni o‘z ichiga oladi:

Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar;

Biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha islohotlar;

Strategiyaning ijtimoiy siyosat yo‘nalishidagi islohotlar;

Strategiyaning iqtisodiyot yo‘nalishidagi islohotlar;

Strategiyaning suv resurslarini tejash va ekologiya yo‘nalishidagi islohotlar;

Strategiyaning davlat boshqaruvi va sud-huquq yo‘nalishidagi islohotlar;

Strategiyaning xavfsizlik va tashqi siyosat yo‘nalishidagi islohotlar.

Davlat dasturi loyihasi esa 5 ta qism va 100 ta maqsaddan iborat.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiyaning yangi tahririda yoshlarning huquq va erkinliklarining ijtimoiy kafolatlari kengaytirilgan. Konstitutsiyada insonning munosib hayot kechirishi uchun sharoit yaratish, jumladan, moddiy, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, sifatli ta’lim va tibbiy xizmatlardan foydalanishni ta’minalash, shuningdek, bolalar, yoshlar, ayollar, nogironlarni ijtimoiy himoya qilish zarurati ko‘zda tutilgan.

